

RAMZ VA TIMSOLNING ZAMONAVIY O‘ZBEK HIKOYALARIDAGI POETIK TALQINI

Norsaidova Munisa Zafarjon qizi

Buxoro viloyati Olot tuman 13- maktab O‘qituvchisi

Ilmiy rahbar: Mahmudova Shoxista Abdusalomovna

“Sharq filologiyasi” kafedrasida o‘qituvchisi

Tel: +998990166104

munisanorsaidova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida ramz va timsollarning badiiy va poetik ifodasi tahlil qilinadi. Asosiy tahlil manbai sifatida Isajon Sultonning “Suvdagi kosa” va Abduqayum Yo‘ldoshevning “Quduq” hikoyalari tanlanib, bu asarlarda ramz va timsollar orqali berilgan falsafiy, ruhiy va ma‘naviy mazmun ochib beriladi. Hikoyalarda suv, kosa, quduq, qum va boshqa obrazlar timsol sifatida ishlatilgani, ular orqasida jamiyat, inson, orzu, xotira, o‘zlik kabi tushunchalar poetik ifoda topgani ko‘rsatib beriladi. Tahlil davomida timsollar orqali berilgan ichki dramatism va ma‘naviy izlanishlar ham yoritiladi. Maqola zamonaviy adabiyotda ramz va timsollar vositasida shakllanuvchi poetik tafakkurning o‘rni va rolini ochishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Zamonaviy hikoya, ramz, timsol, poetik tafakkur, suv, kosa, quduq, Isajon Sulton, Abduqayum Yo‘ldoshev.*

Аннотация: *В статье анализируется художественно-поэтическое выражение символов и аллегорий в современном узбекском сказительстве. В качестве основных источников анализа выбраны рассказы «Чаша в воде» Исаджона Султана и «Колодец» Абдукаюма Юлдашева, раскрывающие философское, духовное и нравственное содержание, переданное посредством символов и образов в этих произведениях. Истории показывают, что вода, чаша, колодец, песок и другие образы используются в качестве символов, и что за ними поэтически выражены такие понятия, как общество, человек, мечта, память и идентичность. Анализ также подчеркивает внутреннюю драму и духовные поиски, переданные посредством символов. Цель статьи – раскрыть место и роль поэтической мысли, сформированной посредством символов и образов, в современной литературе.*

Ключевые слова: *Современный сюжет, символ, образ, поэтическая мысль, вода, чаша, колодец, Исаджон Султан, Абдукаюм Юлдашев.*

Abstract: *This article analyzes the artistic and poetic expression of symbols and imagery in modern Uzbek storytelling. The stories "The Cup in Water" by Isajon Sultan and "The Well" by Abdukayum Yuldoshev are selected as the main sources of analysis, and the philosophical, spiritual and moral content conveyed through symbols and imagery in these works is revealed. It is shown that water, a cup, a well, sand and other images are used as symbols in the stories, and concepts such as society, man, dream, memory, and identity are poetically expressed behind them. During the analysis, the internal dramatism and spiritual*

searches conveyed through imagery are also highlighted. The article aims to reveal the place and role of poetic thinking formed through symbols and imagery in modern literature.

Keywords: *Modern story, symbol, imagery, poetic thinking, water, cup, well, Isajon Sultan, Abdukayum Yuldoshev.*

Kirish

Ramz va timsollar badiiy asarning ichki mazmunini ochish, muallifning hayot, jamiyat, inson haqidagi falsafiy qarashlarini ifodalashda muhim poetik vositalardan biridir. Adabiyotshunoslikda ramz (simvol) va timsol (obraz) tushunchalari ko‘pdan beri muhokama qilinib kelinadi. Yusuf Sultonov, Nodirjon Mirzaev, V.V. Vinogradov, B.V. Tomashevskiy kabi adabiyotshunoslarning fikricha, ramz san’atkor tafakkurining umumlashtirilgan badiiy timsolidir.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida ramz va timsollarning ishlatilishi yangi badiiy tafakkurning shakllanishi, inson ichki dunyosini tahlil qilishga intilish, metaforik tasvirlar orqali chuqur g‘oyaviy qatlamlar yaratish ehtiyoji bilan bog‘liq. Ushbu maqolada Isajon Sultonovning “Suvdagi kosa” hamda Abdugayum Yo‘ldoshevning “Quduq” hikoyalari asosida ramz va timsollar poetik talqin qilinadi.

Asosiy qism

Adabiyotshunoslikda "ramz" (symbol) va "timsol" (obraz) tushunchalari ko‘pincha bir-biriga yaqin ma’noda qo‘llaniladi. Biroq, ularning semantik yuklamasi, vazifasi va poetik xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Ushbu ikki tushuncha badiiy ifoda vositasi sifatida adabiy matnda o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Shu sababli, ularni aniqlab olish, ilmiy izohlab berish va amaliy misollar bilan tasdiqlash adabiyotshunoslik nazariyasining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Adabiy asarda ramziy obrazlar nafaqat badiiy-estetik bezak sifatida, balki chuqur ma’noli va poetik yuklamaga ega bo‘lgan funksional vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning adabiy matndagi quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Semantik funksiya – ramzlar asarning ichki mazmunini ochish, muallif niyatini yashirin va ko‘p qavatli ma’no orqali yetkazishga xizmat qiladi. Ramziy obrazlar orqali badiiy asarda har bir detaldan ortiqcha ifoda topadi, ular orqali asosiy g‘oya va maqsad anglashiladi.

Ekspressiv funksiya – ramzlar asarning estetik ta’sirchanligini kuchaytiradi, hissiy jihatdan kuchliroq anglashga zamin yaratadi. Masalan, O‘tki Hoshimov hikoyalarida vaqt, o‘tkinchilik, xotira kabi tushunchalar ramziy obrazlar – qum soatlari, so‘nayotgan chiroqlar, eskirgan buyumlar orqali yoritilib, o‘quvchida chuqur estetik kechinmalar uyg‘otadi.

Falsafiy funksiya – ramziy obrazlar inson hayoti, taqdiri, jamiyat va vaqt haqida falsafiy mulohazalar qilish imkonini beradi. Har bir ramz ortida muayyan ijtimoiy va ruhiy mazmun yotadi. Jumladan, quduq yoki kosa singari obrazlar inson ichki dunyosi, ruhiy iztirobi va botiniy izlanishlarining timsoli sifatida talqin qilinadi.

Kompozitsion funksiya – ramzlar voqealar rivojlanishida, asarning ichki tuzilmasini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Ba’zida ramziy obrazlar syujet markazida turib, voqealar aynan shu timsol atrofida shakllanadi. Bu esa butun matnning ichki uyg‘unligi va poetik yaxlitligini ta’minlaydi.

Ramz – bu majoziy obraz bo‘lib, u muayyan g‘oyaviy yoki falsafiy mazmunga ega. U ko‘pincha oddiy predmet, harakat yoki belgining chuqur, yashirin ma’noni anglatuvchi shaklidir.

Yusuf Sultonov (Adabiyot nazariyasi) kitobi ramz san’atda hamisha ko‘p qirrali ma’no anglatadi. U turli talqinlarga ochiq bo‘lgan, ichki g‘oyani badiiy timsollar orqali ochishga xizmat qiluvchi poetik hodisadir. Ramz bir nechta ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin va har bir o‘quvchi o‘z dunyoqarashiga ko‘ra uni talqin qiladi. Ko‘p ma’nolilik (polisemantik) va talqinlarga ochiqlik ramzlarning asosiy xususiyatlaridan biridir. Ramz abstrakt tushunchalarni badiiy konkretlik orqali ifodalaydi.

Ramzning bir qancha xususiyatlari bo‘lib, ularga ko‘p ma’nolilik (polisemantik) bir ramz bir nechta mazmunga ega bo‘lishi mumkin, talqinlarga ochiqlik har bir o‘quvchi o‘z dunyoqarashiga ko‘ra tushunadi, madaniy qatlamlilik har bir xalq yoki davr o‘ziga xos ramzlar tizimiga ega, abstrakt tushunchalarni badiiy konkretlik orqali ifodalaydi. Misollar qilib yo‘l – hayot, taqdir, izlanish; qush – ozodlik, orzu, ruhiy yuksalish; chiroq – umid, bilim, ma’rifat.

Timsol esa badiiy asarda muayyan shaxs, predmet, hodisaning tasviriy obrazidir. U badiiy xarakter yaratishda ishlatiladi va o‘quvchida aniq tasavvur uyg‘otadi. Timsol konkret tasvir orqali xarakter yaratadi va o‘quvchida aniq tasavvur uyg‘otadi. U ko‘proq ko‘rgazmalilikni va emotsional ta’sirni ifodalaydi. Timsol estetik vazifani bajaradi, ya’ni asarni ko‘rgazmali va jonli qiladi.

Nodirjon Mirzaev (Badiiy obraz va uning poetikasi) kitobida timsol obrazning tashqi shakli, u estetik vazifani bajaradi va adabiy matnni ko‘rgazmali qiladi. Shu bilan birga timsolning xususiyatlarini bir qancha turlarga ajratadi. Aniqlik va ko‘rgazmalilik ko‘pincha aniq tasvir orqali beriladi, emotsional ta’sir kuchli bo‘ladi, estetik vazifa bajaradi obrazni ko‘z o‘ngida jonlantiradi, ko‘proq konkret holat yoki qahramonni anglatadi. Misol qilib Sariq yaproq – kuz, qarilik timsoli; bo‘z ot (Tog‘ay Murodda) – mardlik, erk ramzi-timsoli, chiroq yonishi – o‘zgarish yoki uyg‘onish belgisi sifatida timsollanadi.

Ramz va timsolning umumiy jihatlari ikkalasi ham badiiy obraz sifatida asar strukturasi muhim o‘rin tutadi; Har ikkalasi majoziy ifoda vositasi sifatida ishlatiladi; Har ikkalasi poetik tafakkur mahsuli hisoblanadi; Har ikkalasi ham o‘quvchiga emotsional va intellektual ta’sir o‘tkazadi; Ramz ko‘pincha timsol orqali beriladi, ya’ni timsol ramziy ma’noni tashiydi.

Muhokama va tahlil

Isajon Sultonning “Suvdagi kosa” hikoyasi ramz va timsollar orqali falsafiy-teran mazmunni ifodalaydi. Hikoya boshidan oxirigacha metaforik qatlamlarga boy. Unda asosiy ramziy obrazlar quyidagilardan iborat:

- Kosa — bu obraz o‘zida hayot, qadr-qimmat, mo‘tadillik va tashnalikni qondirish timsolini mujassam etadi. Suvda suzib yuruvchi kosa inson qadrining beqarorligini, lekin baribir yo‘qolmaydigan mohiyatga ega ekanligini ifodalaydi.

- Suv — bu yerda hayot manbai, vaqt oqimi, taqdir ramzidir. Suvning harakati hayotning davomiyligini, ammo beqarorligini bildiradi.

- Sokin hovuz — ruhiy holat, ichki dunyo, ko‘ngil ramzi sifatida talqin etiladi.

- Qarilik va bolalik qarama-qarshiligi — vaqt, o‘tgan umr, eslash va unutish, avlodlar o‘rtasidagi uzviylik ramzidir.

Hikoya syujeti oddiy ko‘rinsa-da, aslida ichki g‘oya qatlami ramzlar orqali to‘la ifodalangan. Yozuvchi suzib yurgan kosa orqali insoniy orzularning, hayotda o‘z yo‘lini topish ehtiyojining poetik timsolini yaratadi.

Abduqayum Yo‘ldoshevning “Quduq” hikoyasi ham ramziy qatlamlarga boy bo‘lib, unda inson hayoti, orzulari va ularning ado bo‘lishi ramziy timsollar orqali tasvirlanadi. Eng muhim obrazlar quyidagilardir:

- Quduq — bu obraz inson ongining chuqurligi, xotira va botiniy izlanish timsolidir. Quduqqa qarash va ichkariga boqish — bu o‘ziga boqish, o‘zini anglash ramzidir.

- Quyilgan qum — eski xotiralar, unutilgan orzular, yopilgan haqiqat ramzidir. Bu orqali muallif jamiyatdagi og‘riqli haqiqatlar ustiga qum sepilganini ifodalaydi.

- Bolalikdagi quduq — beg‘uborlik, musaffolik, orzular davri timsoli sifatida qaraladi.

- Quduq atrofidagi jimlik — bu ichki sukut, dardni ichda saqlash, ko‘ngilni o‘rganish obrazidir.

Hikoyadagi timsollar orqali insoniy haqiqatlar poetik va metaforik shaklda ochiladi. Quduq bu yerda nafaqat suv manbai, balki inson qalbining ramzidir — u yerda yashirin so‘zlar, unutilgan hislar mavjud.

Xulosa

Ramz va timsol — adabiy matnda bir-birini to‘ldiruvchi, ammo mustaqil nazariy birliklardir. Ramz – bu g‘oyaning ko‘zgusi, timsol esa tasvirning ko‘zgusi. Ramzlar orqali yozuvchi o‘z fikrini yuqori darajadagi badiiy umumlashtirish bilan ifoda etsa, timsollar yordamida an’anaviy adabiy tasvir yaratadi. Isajon Sultonning “Suvdagi kosa” va Abduqayum Yo‘ldoshevning “Quduq” hikoyalarda ramzlar va timsollar o‘z ichida chuqur ma’no va falsafiy mazmuni aks ettiradi. Kosa va suv hayotning beqarorligini va izlanishni, quduq va qum esa insonning ichki dunyosidagi o‘zgarishlarni va xotiralarini ramzlaydi. Hikoyalardagi ramzlar orqali yozuvchilar insonning o‘ziga bo‘lgan munosabatini, uning ichki kurashlarini va orzularini tasvirlashga muvaffaq bo‘lgan. Suv va kosa, quduq va qum kabi oddiy tasvirlar orqali hayotning murakkab, ammo muhim jihatlari ochib berilgan. Bu ramzlar o‘zida juda ko‘p hayotiy haqiqatlarni va ma’naviy izlanishlarni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzaev N. Adabiy tahlil asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
2. Sulton I. Suvdagi kosa. – “Sharq yulduzi”, 2020.
3. Sultonov Y. Adabiy obraz va uning poetik talqini. – Toshkent: Fan, 2017.
4. Tomashevskiy B.V. Literatura i estetika. – Moskva: Progress, 1976.
5. Vinogradov V.V. O yazyke khudozhestvennoy literatury. – Moskva: Nauka, 1980.
6. Xasanov Z. Zamonaviy o‘zbek hikoyalarida poetik obrazlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
7. Yo‘ldoshev A. Quduq. – “Yoshlik”, 2021.